

Joriy yil 2 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lganiga 24 yill to'ldi



Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qariyb ikki yuzta davlatlar jahondagi umumiy tinchlik va ijtimoiy taraqqiyot uchun hamkorlik qilmoqda.

Demokratik rivojlanish yo'lini tanlagan O'zbekiston 1992 yilning 2 martida mazkur tashkilot safiga qo'shildi. Xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida respublikamiz ushbu noyob platforma negizida sayyoramizda tinchlikni ta'minlash, mamlakatlar o'rtasida do'stona aloqalarni rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilishning umumiy tizimini mustahkamlash, zamonaviy xatarlar va chaqiruvlarga qarshi kurash, ekologik barqarorlikni saqlab qolishda munosib hissa qo'shib kelmoqda.

O'zbekiston BMTning dasturlari, fondlari va ixtisoslashtirilgan tashkilotlari – Taraqqiyot dasturi, Ta'lim, ilm-fan va madaniyat tashkiloti (YUNESKO), Bolalar fondi (YUNISEF), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqalarda loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Mamlakatimizning tashabbusi bilan Markaziy Osiyoda yadroviy quroldan xoli bo'lgan hudud yaratildi. Respublikamizning Afg'oniston mojarosini hal qilish va ushbu mamlakatda tinch hayotni tiklash bo'yicha har tomonlama olib borayotgan sa'y-harakatlari alohida e'tiborga loyiq. O'zbekistonning xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkotrafikka qarshi kurashish, shuningdek, BMT faoliyatini isloh qilish, uning organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha ilgari surgan takliflari mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish, milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirish va insonlarning farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 1999 yilda bo'lib o'tgan Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Istanbul Sammitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro markazni tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. 2001 yilda esa shunday qo'mita BMT tarkibida faoliyatini boshladi.

BMT Bosh Assambleyasining 68-sessiyasi rasmiy xujjati sifatida mamlakatimiz tomonidan tashkilotning eng yuqori minbaridan e'lon qilingan Orol dengizining qurishi oqibatlarini bartaraf etish va Orolbo'yi mintaqasida ekologiya tizimlari fojeasining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturi tarqatildi.

BMT rasmiy vakillarining O'zbekistonga qilgan tashriflari, shu jumladan, tashkilot Bosh kotibi Pan Gi Munning 2010 va 2015 yillarda yurtimizga kelishi ham yuqoridagi tashabbuslarning dolzarbliligi hamda ularning zamonaviy xalqaro kun tartibiga o'z vaqtida qo'yilganidan dalolat beradi.

BMTning Mingyillik deklaratsiyasiga qo'shilar ekan, respublikamiz Mingyillikning rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z bo'yniga oldi. 2010 yilda davlatimiz rahbari BMTning "Mingyillikning rivojlanish maqsadlari" Sammiti yalpi majlisida so'zga chiqar ekan, O'zbekiston tomonidan uning bajarilishi bo'yicha bajarilgan ishlar – keng ko'lamdagi ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar haqida gapirib berdi. Mustaqil rivojlanishning har bir yangi yilida ushbu o'zgarishlar dunyoda yanayam katta aks sado bermoqda.

Demak, mamlakatimizning ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha olib borgan ishlari yuqori bahoga loyiq bo'ldi. Jahon bankining o'tgan yilning oktyabrda e'lon qilgan "Biznesni olib borish" reytingiga ko'ra, O'zbekiston 87-o'rinni egalladi. Maqsad sari intiluvchan yosh respublika bir yilda 16 pog'onaga ko'tarildi. Shu bilan birga, "yangi biznesni qo'llab quvvatlash" mezonini bo'yicha mamlakatimiz dunyoda 42-o'rinda, imzolangan shartnomalarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha 32-o'rinda, iqtisodiy nochor korxonalarini bankrotlashtirish tizimining samaradorligi bo'yicha 75-pog'onani egallab turibdi.

"Kichik biznes sub'ektlariga kreditlarni ajratish" indikatorini bo'yicha O'zbekiston oxirgi uch yilda 154-o'rindan 42-pog'onaga ko'tarildi va 2015 yilning o'zida o'z reytingini 63 punktga yaxshiladi. Jahon bankining hisobotida ta'kidlanishicha, hozirgi paytda mamlakatimiz ishbilarmonlik faoliyati uchun qulay muhitni yaxshilash sohasida oxirgi yillarda eng yaxshi natijalarga erishgan mamlakatlar o'ntaligidan joy egallab turibdi.

Shuningdek, O'zbekiston BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga a'zo mamlakatlar tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi Mingyillikning rivojlanish maqsadlarida erishgan yutuqlari uchun taqdirlangan 14 ta mamlakatdan biri bo'ldi.

Respublika bolalar o'limini qisqartirish va onalar sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha Mingyillikning rivojlanish maqsadlariga to'liq erishdi. Oxirgi besh yilda onalarnig o'limi 100 mingta tug'ilgan chaqaloqqa 23,1 dan 19 ta holatgacha kamaydi, besh yoshgacha bo'lgan bolalarni o'limi 14,8 dan 13,9 gacha, chaqaloqlarniki esa 11 dan 10,7 gacha kamaydi.

Butun dunyoda ta'lim tizimini yanada isloh qilish va takomillashtirishning milliy modeli erishgan yutuqlar tan olinmoqda. O'zbekistonning bu sohaga qilinayotgan yillik sarf-harajatlari YAIMning 10-12 foizini tashkil etmoqda. Bu esa mazkur sohaning barqaror rivojlanishi uchun kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha YUNESKO tavsiya etgan oltiyetti foizdan deyarli ikki barobar ko'pdir.

BMT, Jahon banki, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining statistik ma'lumotlariga muvofiq tuzilgan "Butunjahon baxt indeksi"ga ko'ra

esa respublika Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Davlatlar tomonidan o'z aholisi uchun baxtli hayotni ta'minlab berish qobiliyatini belgilovchi ushbu reytingda O'zbekistonnig joy olishi ajablanarli hol emas.

Aniq bunyodkorlik ishlari bilan mamlakatimiz xalqaro tinchlikparvar siyosat tamoyillariga asoslangan inson huquqlari va demokratiya g'oyalarining tarafdori ekanini isbotlab kelmoqda.

[Havola: http://politics.uzreport.uz/news_u_139643.html](http://politics.uzreport.uz/news_u_139643.html)